



**"34,9% stavkali kredit kartalari uchun maxsus tarif"
aksiyasini o'tkazish qoidalari**

"AVO bank" AJ Boshqaruvi yig'ilishining 2026-yil 22 maydagi 13/26 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan

2026-yil 01 iyundan kuchga kiradi

"34,9% stavkali kredit kartalari uchun maxsus tarif" aksiyasini o'tkazish QOIDALARI

1. Atamalar va ta'riflar

Aksiya - Bank mijozlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan "34,9% stavkali kredit kartalari uchun maxsus tarif" aksiyasi bo'lib, uning doirasida Aksiya ishtirokchilariga kredit mablag'laridan foydalanib naqd pul yechish, pul o'tkazish va ularga tenglashtirilgan amaliyotlar uchun maxsus tarif o'rnatiladi.

Bank - "AVO bank" aksiyadorlik jamiyati ("AVO bank" AJ), STIR 207257279, manzil: 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A-uy, Aksiya tashkilotchisi.

Bosh shartnoma - "AVO bank" AJda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatini ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnoma.

Bank mijoz (Mijoz) / Aksiya ishtirokchisi - Bank bilan boshqa xaridlar hamda naqd pul yechish, pul o'tkazish va ularga tenglashtirilgan amaliyotlar uchun kreditdan foydalanganlik uchun yillik 34,9% miqdorida foiz stavkasi belgilangan Kredit shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Kredit shartnomasi - Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan AVO platinum Bank kartasi uchun mikroqarz shartnomasi bo'lib, u Bosh shartnomaning ilovasi yoki ajralmas qismi hisoblangan tegishli Ariza, Oferta, Tarif rejasi, Umumiy kredit shartlari va Individual kredit shartlarini o'z ichiga oladi.

Qoidalar - Bank mijozlarining Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilovchi ushbu hujjat.

Xarajat operatsiyasi – Kredit mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirilgan va Karta hisobvarag'ida aks ettirilgan, naqd pul yechish, pul o'tkazish yoki, unga tenglashtirilgan operatsiya.

Qoidalarda bosh harf bilan yozilgan boshqa atamalar Bosh shartnomada belgilangan ma'noga ega.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Qoidalar Aksiyani o'tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi.

2.2. Aksiya Aksiya ishtirokchilari orasida AVO platinum kredit kartasidan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan.

- 2.3. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasining butun hududini o'z ichiga oladi.
- 2.4. Aksiya muddati: 2026-yil 21 yanvardan 2026-yil 31-dekabrgacha (shu kun ham qo'shilgan holda).
- 2.5. Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.
- 2.6. Aksiya ishtirokchisining Aksiya shartlari asosida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishi uning Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.
- 2.7. Aksiyada ishtirok etish bepul bo'lib, qo'shimcha ro'yxatdan o'tishni talab qilmaydi.

3. Aksiyaning umumiy qoidalari

- 3.1. Qoidalarining 2.4-bandida belgilangan Aksiya muddati tugaguniga qadar Kredit shartnomasini tuzgan Bank mijozlari Aksiyada ishtirok etadi.
- 3.2. Aksiya doirasida Bank Aksiya ishtirokchisiga Xarajat operatsiyalari uchun quyidagicha maxsus tarif belgilaydi:

1.	Naqd pul yechib olish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar uchun komissiya:	
1.1.	AVO platinum kartasi orqali bankomatlar, Bankning mobil ilovasi va boshqa banklarning bankomatlari hamda terminallarida Kredit asosida olingan mablag'lardan foydalanish	Xarajat operatsiyasi summasining 4,9 foizi + 29 000 so'm
1.2.	AVO platinum kartasi orqali Bank bankomatlarida shaxsiy mablag'lardan foydalanish	Xarajat operatsiyasi summasining 1 foizi
1.3	AVO platinum kartasi orqali boshqa banklarning bankomatlarida va terminallarida shaxsiy mablag'lardan foydalanish	Xarajat operatsiyasi summasining 1 foizi

- 3.3. Qoidalarining 3.2-bandida ko'rsatilgan maxsus tarif Xarajat operatsiyasi amalga oshirilayotgan paytda avtomatik ravishda qo'llaniladi va Aksiya ishtirokchisidan qo'shimcha harakatlarni talab etmaydi.
- 3.4. Maxsus tarif faqat Aksiya amal qilish davrida amalga oshirilgan Xarajat operatsiyalariga tatbiq etiladi.
- 3.5. Qoidalarining 3.2-bandida ko'rsatilmagan barcha boshqa operatsiyalarga Bank tomonidan operatsiya amalga oshirilayotgan paytda amalda bo'lgan tariflar qo'llaniladi.
- 3.6. Aksiya doirasidagi Xarajat operatsiyalariga Bosh shartnoma va Bank tariflarida belgilangan limitlar va cheklovlar amal qiladi.

4. Boshqa shartlar

- 4.1. Qoidalar Bank veb-saytida e'lon qilinadi. Bank istalgan vaqtda Aksiya shartlarini muddatidan oldin tugatish, to'ldirish yoki bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega. Aksiya shartlaridagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar Bosh shartnomada ko'rsatilgan usullar bilan e'lon qilinadi.
- 4.2. Bank Aksiyada ishtirok etish munosabati bilan Aksiya ishtirokchisida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar va boshqa har qanday sarf-xarajatlarni qoplamaydi hamda kompensatsiya qilmaydi.
- 4.3. Aksiya shartlari Bankning kollegial boshqaruv organlari a'zolari va boshqa xodimlariga ularning xizmat mavqeidan foydalangan holda shaxsiy imtiyoz berishni yoki bunday imtiyozni uchinchi shaxslarga, Aksiyaning boshqa ishtirokchilariga nisbatan taqdim etish uchun foydalanishni nazarda tutmaydi.
- 4.4. Bank Aksiya ishtirokchisiga xabar bermasdan va sabablarini tushuntirmasdan, quyidagi hollarda uni Aksiya ishtirokchilari safidan chiqarishga haqli:
 - 4.4.1. Firibgarlik harakatlarini amalga oshirsa, va/yoki
 - 4.4.2. Aksiya doirasida berilgan imtiyozlardan noto'g'ri foydalansa, va/yoki
 - 4.4.3. Bankka chalg'ituvchi yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etsa, va/yoki
 - 4.4.4. Bankning ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatsa, va/yoki
 - 4.4.5. Bankning boshqa mijozlarini chalg'itsa.
- 4.5. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o'yin yoki garov hisoblanmaydi.
- 4.6. Qoidalardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi lozim. Jismoniy shaxs sudga da'vo arizasi topshirishdan oldin nizolarni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etishi, ya'ni quyidagi usullardan biri orqali yozma e'tiroz yuborishi shart:
 - 4.6.1. Bankning davlat ro'yxatidan o'tgan manziliga, Bank tomonidan e'tiroz qabul qilinganligi tasdiqlanishi bilan;
 - 4.6.2. Elektron pochta orqali: info@avo.uz.
- 4.7. E'tiroz da'vo muddati mobaynida bildirilishi mumkin. Bank ko'rsatilgan e'tirozni ko'rib chiqadi va e'tiroz olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmay javob yuboradi. E'tiroz to'liq yoki qisman rad etilganda yoxud uni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatda Bankdan javob olinmaganda, jismoniy shaxs sudga da'vo arizasi topshirishga haqli.
- 4.8. Qoidalardan kelib chiqadigan nizolar Toshkent shahridagi Mirobod tumanlararo fuqarolik ishlari sudida ko'rib chiqiladi. Agar nizo bo'yicha da'vogar Bank bo'lsa, Bank o'z ixtiyoriga

ko'ra nizoni Toshkent shahrida yakka tartibdagi hakamlik sudyasi tomonidan rus tilida hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudiga uning reglamenti va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq murojaat qilish huquqiga ega.

- 4.9. Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.
- 4.10. Aksiya ishtirokchisi Qoidalarni bilishi va ularga rioya qilishi shart. Aksiya ishtirokchisi shaxsan o'z nomidan, ixtiyoriy va mustaqil ravishda harakat qiladi, o'z harakatlarining shartlari, oqibatlari va Qoidalarda belgilangan tegishli qoidalarni aniq tushunadi.
- 4.11. Aksiya ishtirokchisi Bankning Aloqa markaziga +998 78 888-78-78 telefon raqami yoki info@avo.uz elektron pochta manzili orqali murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.